

Biologiya

1. Ahamiyatiga ko'ra xazonrezgilik nima?. a) O'simliklarni qishki noqulay sharoitdan saqlaydi; b) qishda tuproqdagi suvdan foydalanishini ta'minlaydi; c) to'plangan zararli moddalardan xoli bo'ladi; d) oziq moddalarning barglarda sintezini kuchaytiradi; e) nafas olish kuchayadi
A) b, c, d B) a, c C) a, b, c D) d, e
2. Ajriq, g'umay, shirinmiya, qamish, kavrak, kuchala kabi o'simliklarning hayotiy shaklini belgilang ?
A) efemerlar B) bir yillik o'tlar C) ikki yillik o'tlar D) ko'p yillik o'tlar
3. Akvarium devorida ham o'sadigan o'simlikni aniqlang. A) ulva B) nemalion C) xlamidomonada D) ulotriks
4. ning muskullari ikki yon tomonida tana bo'ylab uzun tasma shaklida joylashgan. U juda oddiy harakatlanadi: tanasini u yoki bu yoniga egib suzib yuradi.
A) Oq planariya B) Lansetnik C) Nereida D) Qilquyruq
5. sistemalarining mukammal rivojlanganligi tufayli sutemizuvchilar tanasida moddalar almashinuvi juda jadal boradi. A) nafas olish va qon aylanish B) ovqat hazm qilish, qon aylanish C) nafas olish va ovqat hazm qilish D) ayirish va endokrin
6. Bosh miyasi bo'lgan umurtqali hayvonlarni toping. 1) asalari; 2) baliq; 3) karakatitsa; 4) baqa; 5) chumoli; 6) kalmar; 7) ilon; 8) osminog.
A) 2, 4, 7 B) 1, 3, 5, 6, 8 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 4, 6
7. 3 oylik (a), 5 oylik (b), 7 oylik (c) bolalarga xos bo'lmagan belgilarni ko'rsating?
1) o'tira boshlaydi 2) umurtqa qismida faqat lordoz qismi paydo bo'lgan bo'ladi 3) umurtqa pog'onasining kifozi qismi shakillanadi 4) sut tishlari chiqib boshlaydi 5) ko'rish analizatori faoliyati boshlanadi 6) eshitish analizatori faoliyati boshlanadi 7) emaklaydi 8) o'ziga yaqinlarni tanib boshlaydi
A) a-1,2,3,4,5,6,7,8; b-2,4,5,6,7; c-1,2,3,5,6
B) a-1,3,4,5,6,7,8; b-1,2,4,5,6,7; c-1,2,3,5,6
C) a-1,3,4,5,7,8; b-2,4,5,6,7; c-1,2,3,4,5,6
D) a-1,3,4,5,7,8; b-2,4,5,6,7; c-1,2,3,5,6
8. 8 yoshli boladagi tireotoksikoz kasalligining ko'rinishlarini belgilang. 1) ko'p terlash; 2) bo'y o'sishi sekinlashishi; 3) ko'zning chaqchayishi; 4) asabiylashishi; 5) soch to'kilishi; 6) uyqusizlik; 7) ozish; 8) burni, labi, iyagi, qo'l panjalarining hajmi kattalashishi; 9) qalqonsimon bez kattalashishi
A) 1,2,3,4,5,6,7 B) 1, 3,4,6,7,9 C) 3,4,5,6,7,8 D) 1,3,4,5,6,7,8,9
9. A vitamini qaysi mahsulotlarda bo'lmaydi? 1) baliq yog'i 2) tuxum sarig'i 3) guruch po'stlog'i 4) loviya 5) jigar 6) yong'oq 7) karam 8) sabzi A) 1,2,3,4 B) 2,3,4,5 C) 3,4,6,7 D) 1,2,5,8
10. Allel bo'lmagan genlar o'zaro ta'sirining qaysi birida fenotip bo'yicha 9:7 nisbatda ajralish olish mumkin?
A) epistaz B) polimeriya C) komplementarlik D) pleyotrop
11. ... mevatanasi yirik, bo'yi 10-20 sm, ichi bo'sh bo'lib, qalpoqcha va oyoqchadan iborat. Qalpoqchanning ustki tomoni sporalar yetiladigan katakchalardan iborat, qalpoqchanning cheti oyoqchasi bilan birlashgan holda o'sadi. A) Qo'zidumba B) Go'ng zamburug'i C) Qo'ziqorin D) Mog'or zamburug'i
12. Allel genlar meyozi jarayonida A) har xil gametalarga tarqaladi B) bitta gametaga o'tadi C) bitta xromosomaning lokusida joylashadi D) meyozi ishtirok etmaydi
13. Tabiiy oqsillar tarkibidagi aminokislotalarning necha %ini siklik aminokislotalar tashkil etadi?
A) 25 % B) 75 % C) 30 % D) 70 %
14. KkDd genotipli organizmlar qanday gametalar hosil qiladi?
A) Kd, kd, KK, KD B) kD, Kd, kk, KK
C) Kk, Dd, KD, Kd D) KD, Kd, kD, kd
15. 6 g yog'ning parchalanishidan qancha kkal energiya ajraladi?
A) 55,8 B) 65,7 C) 54,3 D) 47,5